

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NORKUZIYEVA DILDORA SHERALIYEVNA

**ZOOMORFIZMLARNING LINGVOMADANIY TAVSIFI (O‘ZBEK VA
NEMIS TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Norkuziyeva Dildora Sheraliyevna

Zoomorfizmlarning lingvomadaniy tavsifi (o'zbek va nemis tillari misolida)..... 3

Норкузиева Дилдора Шералиевна

Лингвокультурное описание зооморфизмов (на примере узбекского и немецкого языков)..... 25

Norkuziyeva Dildora Sheraliyevna

Linguacultural description of zoomorphisms (on the example of the Uzbek and German languages)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQOLPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/30.04.2022.FIL.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

NORKUZIYEVA DILDORA SHERALIYEVNA

**ZOOMORFIZMLARNING LINGVOMADANIY TAVSIFI (O‘ZBEK
VA NEMIS TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/2967 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifaning (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Salaxiddin Ismailovich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy taqrizchilar:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Nazarov Sardor Xasanovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil ____ soat ____ da majlislar zalida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri. Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri. Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ ____ ” kuni tarqatildi.
(2025-yil “ ____ ” dagi № ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.S. Kудaybergenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

J.E. Seytjanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A. Kurbaniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining so‘nggi yillardagi taraqqiyotida til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari doirasida zoomorfizmlarning tutgan o‘rni, ularning shaxsni obrazli tavsiflash imkoniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar salmoqli o‘rin egallamoqda. Zoomorfizmlarning aksiologik imkoniyatlari stilistika, matn tilshunosligi, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya singari yo‘nalishlarning asosiy tadqiq obyektiga aylandi. Ayniqsa, zoomorfizmlar antropotsentrik paradigma yo‘nalishida olamining lisoniy va lingvomadaniy manzarasida idrok, tafakkur, mental ong ishtirokini yoritish va uni ifodalashda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishdagi izlanishlarning ma‘lum bir xalq obrazli tafakkurining o‘ziga xosligi hamda turli etnik guruhlar olami qadriyatlar manzarasidagi farqlarning ontologik mohiyati va lingvokulturologik mexanizmini aniqlash tilshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligining yetakchi ilmiy markazlarida bugungi kunda tillarni qiyoslash, chog‘ishtirish, ularning universal va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash negizida hayvon nomlarining umumiy va xususiy belgilari tahlil etilmoqda. Zoomorfizmlar olamini idrok etishda, uni aks ettirishda hayvon nomi, lisoniy ong, tafakkur munosabatlarini o‘rganish, zoonim leksikasi, uning leksik tizimdagi o‘rni, fikrlash jarayoniga belgilovchi ta‘siri masalalarini tadqiq etish tobora amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Lisoniy ongdagi antropomorflashish, zoomorfizmlar olami manzarasini kategoriyalashtirish, til va tafakkur munosabatlarida zoonimlarning muloqotga majoziy konnotatsiyalar taqdim etish funksiyasiga doir izlanishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalari kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika tushunchalariga yondashgan holda tadqiq etilmoqda. O‘zbek tilini chet tillarga tipologik qiyoslab, zoomorfizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ona tilimizni jahonning eng rivojlangan tillari qatoriga chiqarish, “o‘zbek milliy mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalarini jahon tillariga sifatli o‘g‘irishga doir tarjimonlik maktablarini rivojlantirish, jahon adabiyotining eng sara namunalarini vositachi va original tillardan o‘zbek tiliga tarjima qilish tizimini keng qo‘llab-quvvatlash”¹ masalalari kun tartibiga qo‘yilmoqda. Turli tizimli tillarning belgilarini qiyosiy- tipologik tadqiq etish, xususan, o‘zbek va nemis tillaridagi zoomorfizmlar ma‘nolarini kognitiv-kulturologik tahlil qilish asosida milliy-madaniy etalonlar, stereotiplar bilan bog‘liq muayyan lisoniy-madaniy jamoaga xos mentalitetni aks ettiruvchi nemis va o‘zbek xalqlarining qadriyatlar manzarasini tizimlashtirish masalalari dolzarb sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ–4884-son “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Lingvokulturologiya sohasida yaratilgan ishlarda hayvon nomlarining asl va majoziy ma‘nolari muammosiga oid ko‘plab qimmatli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, H.Hulzer, D.Dobrovol’skiy, E.Piirainen, A.Paululat, R.Bisschops, K.Bochmann, I.S.Gilhus, H.Ch.Hart, V.A.Buldakov, O.I.Glazunova, D.X.Bazarova, N.Nishonova va boshqalarning ishlarini alohida qayd etish kerak².

Xorijiy ilm muassasalarida asosiy e‘tibor zoonimlarning til tizimida va nutqiy aktlardagi tasnifiy belgilarini ajratishga qaratilib, ularni struktur-derivatsion hamda chog‘ishtirma usulda tahlil qilish an‘anasi shakllanmoqda³. Insonni o‘rab turgan borliqdagi obyektlarni bevosita va bilvosita nomlash pragmatik mo‘ljaliga ega bo‘lgan zoonimlarning zoometaforalar shaklida o‘zbek

²Hülzer, H. Die Metapher / N. Hülzer. – Münster: Nodus Publikationen. 1987. – 246 p.; Dobrovol’skiy, D., Piirainen, E. Symbole in Sprache und Kultur. Studien zur Phraseologie aus kultursemiotischer Perspektive. Bochum. 1997. – 621 s.; Paululat A. Wörterbuch der Zoologie mit einer „Einführung in die Terminologie und Nomenklatur – und einem „Überblick über das System des Tierreichs – Begründet, bearbeitet und in sieben Auflagen herausgegeben von Erwin J. Hentschel und Günther H. Wagner 8. stark überarbeitete und erweiterte Auflage. Spektrum Akademischer Verlag Heidelberg, 2011. – 516 s.; Bisschops, R. Die Metapher als Wertsetzung. Novalis, Ezechiel, Beckett. Paperback Published November 1st 1994 by Peter Lang GmbH, Internationaler Verlag Der Wissenschaften, 1994. – 401 s.; Bochmann, K. Zum theoretischen Status und operativen Wert der Konnotation: linguistische Arbeitsberichte K. Bochmann. – Heft 10. – Leipzig: Karl-MarxUniversität, 1974. – 38 s.; Gilhus, I.S. Animals, Gods, and Humans: Changing Attitudes to Animals in Greek, Roman and Early Christian Thought / I.S. Gilhus. – London: Routledge, 2006. 336 p.; Hart, H.Ch. The animals mentioned in the bible / H.Ch. Hart. – California: University of California Libraries, 1983. – 252 p.; Булдаков В.А. Коннотация в знаменательной лексике и фразеологии современного немецкого языка (контентивно-менталингвистический подход): Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – СПб., 2011. – 42 с.; Глазунова О. И. Логика метафорических преобразований. СПб., 2000. – 190 с.; Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). – Ташкент: Фан, 1978. –224 с.; Нишоновна Н. Ўзбек тилида «хайвон» архисемали лексемалар майдонинининг мазмуний таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф., 2000. – 24 б.;

³Ватлецов, С. Г. Систематика зооморфной лексики и ее англо-русская эквивалентность: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 20 с.; Галимова, А. В. Этнокультурная специфика зоонимической лексики, характеризующей человека (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Уфа, 2004. – 22 с.; Солнцева Н.В. Сопоставительный анализ зоонимов русского, французского и немецкого языков в этносемантическом аспекте. – Омск, 2004. – 220 с.; Гукетлова, Ф.Н. Зооморфный код культуры в языковой картине мира (на материале французского, кабардино-черкесского и русского языков): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.02. – Москва, 2009. – 47 с.; Abdullayeva S.B. Insonni xarakterlashda zoonim komponentli frazeologik birliklardagi lingvopragmatik xususiyatlar (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2022. – 54 b.

tilida namoyon bo'ladigan xususiyatlari ham, albatta, tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan⁴. Lekin zoonimlarning zoomorfizmlar shaklidagi o'zbek madaniyatiga xos lisoniy-madaniy jihatlari, ularning voqelanishiga zamin yaratuvchi etnokognitiv omillar qatorini belgilashga oid muammolar muhokamasi zarurati mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Ayniqsa, zoomorfizmlarning antropotsentrik vazifasini tagma'noli ifodalash masalasi tilshunoslikda tor ko'lamda o'rganilgan mavzulardandir⁵.

Turli tizimli tillarning belgilarini qiyosiy-tipologik tadqiq etish, xususan, o'zbek va nemis tillaridagi zoomorfizmlar ma'nolarini kognitiv-kulturologik tahlil qilish asosida madaniy-milliy etalonlar, stereotiplar bilan bog'liq muayyan lisoniy-madaniy jamoaga xos mentalitetni aks ettiruvchi nemis va o'zbek xalqlarining qadriyatlar manzarasini tizimlashtirish masalalari dolzarb sanaladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tili va adabiyoti ta'limining dolzarb masalalari" mavzusidagi amaliy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va nemis leksikografik manbalarida zoonim olami kognitiv manzarasining aks ettirilishini qiyoslash asosida zoomorfizm shakllanishini belgilovchi kognitiv mezonlarni aniqlash va zoomorfizm vositasida shaxsni identifikatsiyalash hamda tavsiflashning kognitiv-madaniy asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

lingvistik ma'no nazariyasi doirasida hayvon nomlarining ifodalanishi muammosini o'rganish, hayvonlarni tasnifiy guruhlariga ajratishda tayaniladigan tamoyillarni va ularni nomlashda qo'llaniladigan atamalarni belgilash;

o'zbek va nemis tillari leksikografik manbalarida zoonim olami kognitiv manzaralari qayd etilishining qiyosiy lingvomadaniy tahlilini o'tkazish;

o'zbek va nemis tillarida zoomorfizm vositasida shaxsni identifikatsiyalash va tavsiflashning lingvomadaniy asoslarini yoritib berish hamda zoomorf tavsifning zoomorfizm – odam semantik modeli asosida shakllangan frazeologizmlarda verballashish xususiyatlarini yoritib berish;

qardosh bo'lmagan o'zbek va nemis tillarida zoomorfizm shakllanishini belgilovchi kognitiv mezonlarni izohlash.

⁴Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Автореф. дис... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990. – 23 с.; Сафаров П. Формирование зоонимической лексики современного узбекского языка по данным исторической грамматики. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 1992. – 19 с.; Саидова Х. Ўзбек тилида хайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фан.номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1995. – 22 б.; Нишоновна Н. Ўзбек тилида «хайвон» архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.; Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 22 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри.. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.; Yo'ldosheva D.B. O'zbek tili omitonimlarining strukturaviy va semantik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha fals.dok. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 51 b.

⁵Галимова О.М. Этнокультурная специфика зоонимической лексики, характеризующей человека (на материале русского и немецкого языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 309 с.; Гарифуллина А.М. Фразеологические единицы, выражающие эмоции и чувства человека, в турецком и английском языках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2005. – 458 с.; Самедов М.Д. Фразеологические единицы, обозначающие эмоциональные и интеллектуальные состояния человека в английском и арчинском языках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2006. – 162 с.; Гатауллина Р.В. Фразеологические единицы, характеризующие психические состояния человека, в немецком, английском и татарском языках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2010. – 205 с.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va nemis tillari tizimiga kiritilgan zoomorfizmlar va zoonim tarkibli frazeologik birliklar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va nemis tillari leksikografik manbalarida qayd etilgan zoomorfizmlarning shakllanishi asosidagi kognitiv va lingvomadaniy mezonlar hamda ularning qiyoslanayotgan tillardagi in’ikosi tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Insonning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, yashash tarzi va xarakter xususiyatlarini majoziy baholash maqsadida qo‘llanadigan zoomorfizmlarni tadqiq qilishda qiyoslash, tasniflash, leksikografik tahlil, komponent tahlil usullaridan hamda zoomorfizm ma’nosining yaratilish asosida turuvchi obrazli tasavvurlarni (bilimlar fondini) tasvirlashda kognitiv talqin qilish metodidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hayvonot olami manzarasi obyektlarini nomlash sohasining leksik kategoriyalarini ifodalovchi atamalarining nominativ salohiyati etnolisoniy ongda shakllangan zoonim asl ma’nosining semantik belgilarini ham, “hayvon→predmet→tushuncha” semantik modelidagi zoometafora ma’nolarini ham, “hayvon→odam” semantik modelidagi zoomorfizm baholovchi konnotatsiyalarni ham anglatish qobiliyatida namoyon bo‘lishi aniqlangan;

zoomorf leksikaning ko‘rish, kuzatish, eshitish, hidlash, sezish, ta’min bilish kabi idrok kanallari orqali qabul qilinadigan lingvokognitiv hamda *tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, xarakteri, yashash tarzini* idrok etish va kuzatish orqali milliy ongda shakllangan tasavvurlarining lingvomadaniy jihatlari ochib berilgan;

nemis jamiyatida kuchli, *ziyrak, tajribali*, o‘zbek jamiyatida esa *kuchli, yuvosh, beozor* kabi ijobiy fazilatlar ustuvor qadriyatlar ekanligi hamda *ahmoq, qo‘rqoq, ochko‘z* belgilari nemis lingvomadaniyatida eng ko‘p qoralanishi, *ahmoq o‘jar, ayyor* belgilari esa o‘zbek lingvomadaniyatida qoralanishi asoslab berilgan;

ayrim zoomorfizmlar metaforik yoki metonimik ko‘shishlar asosida o‘zbek va nemis jamiyatida o‘ta salbiy baholanadigan sifatlarga ega bo‘lishi va nemislarga ham, o‘zbeklarga ham jiddiy kamchilik yoki shaxsning ijtimoiy xulq-atvor me’yorlaridan chetga chiqishi bo‘lib ko‘rinishi, ularning yordamida odamni haqorat qilish mumkinligi ko‘rsatilgan, invektiv gaplar sifatida shaxs haqidagi mulohazalarni ekstremal shaklda ifodalab, qiyoslanayotgan madaniy hamjamiyatning qadriyatli belgilar tizimini aks ettirishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

zoomorfik obrazlardan unumli foydalanish uchun o‘zbek va nemis etnoslarining milliy mentalitetiga mos ravishda zoonimlarning antropotsentrik o‘xshashliklari orasidagi assotsiatsiyalar hamda zoomorfizmlarning antropotsentrik konnotatsiyalari qiyosiy-tipologik tahlil qilinib, tegishli ilovalarda aks ettirilgan;

zoomorfizmlar ma’nolarinining yaratilishi asosida har bir hayvonning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, xarakteri, yashash tarzini idrok etish va kuzatish orqali milliy ongda shakllangan tasavvurlari til materiallari bilan dalillangan;

zoonim va zoomorfizm doirasidagi madaniy birliklarni tizimlashtirish, ularning lingvomadaniy xususiyatlari tahlilini o'rgatish va o'rganish yuzasidan uslubiy ta'minot yaratilgan hamda o'zbek va nemis tillari tizimida qayd etilgan zoomorfizmlar asosidagi zoonim tarkibli frazeologik birliklar lug'atini tuzishga doir amaliy materiallar ilovalar shaklida taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan asoslanganligi, tahlil qilingan materialning katta hajmdaligi va ishonchli manbalardan olinganligi, ushbu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy holatlariga tayanilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishiga muvofiqligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hayvonot olamining zoomorf manzarasining tilda aks ettirilish muammosiga nisbatan antropotsentrik jihatdan yondashish va leksikadagi tizimli munosabatlar turlarini metaforik ko'chimlar va majoziy taqqoslashlar asosida muammolariga aniqlik kiritilganligi hamda zoomorfik obrazning kognitiv asosi va lingvomadaniy o'ziga xosligini qardosh bo'lmagan til materiallari asosida qiyosiy o'rganilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari kelgusida lingvomadaniyatshunoslik sohasida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta'lim tizimida "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya", "Kognitiv tilshunoslik", "Lingvokulturologiya" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tuzishda, lingvokulturologiya, etnolingvistika, qiyosiy tipologiya bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda, magistrlik va PhD dissertatsiyalarini yozishda, ikki va ko'p tilli lug'atlar tuzishda, o'zbek va nemis tillari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni boyitishda xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va nemis tillaridagi zoomorfizmlarning kognitiv va lingvomadaniy tahlili jarayonida erishilgan natijalar asosida:

hayvonot olami manzarasi obyektlarini nomlash sohasining leksik kategoriyalarini ifodalovchi atamalarining nominativ salohiyati etnolisoniy ongda shakllangan zoonim asl ma'nosining semantik belgilarini ham, "hayvon→predmet→tushuncha" semantik modelidagi zoometaphora ma'nolarini ham, "hayvon→odam" semantik modelidagi zoomorfizm baholovchi konnotatsiyalarni ham anglatish qobiliyatida namoyon bo'lishi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 12-yanvardagi №17.01/236-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha

doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar zoomorfizmlarning etnolingvomadaniy tavsifi (o‘zbek va nemis tillari misolida) yuzasidan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

zoomorf leksikaning ko‘rish, kuzatish, eshitish, hidlash, sezish, ta‘m bilish kabi idrok kanallari orqali qabul qilinadigan lingvokognitiv hamda *tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, xarakteri, yashash tarzini* idrok etish va kuzatish orqali milliy ongda shakllangan tasavvurlarining lingvomadaniy jihatlari ochib berilganligi xususidagi nazariy xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Samarqand”, “Qadriyat” loyihalarida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-yanvardagi №01.07/9-son ma‘lumotnomasi). Natijada Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi teletomoshabinlariga o‘zbek va nemis tillari tizimida mavjud bo‘lgan zoomorfizmlar vositasida shaxsni identifikatsiyalash va tavsiflashdagi umumiy hamda milliy o‘ziga xos hayvon obrazlari haqida ma‘lumotlar taqdim etilgan;

nemis jamiyatida *kuchli, ziyrak, tajribali*, o‘zbek jamiyatida esa *kuchli, yuvosh, beozor* kabi ijobiy fazilatlar ustuvor qadriyatlar ekanligi hamda *ahmoq, qo‘rqoq, ochko‘z* belgilari nemis lingvomadaniyatida eng ko‘p qoralanishi, *ahmoq o‘jar, ayyor* belgilari esa o‘zbek lingvomadaniyatida qoralanishi haqidagi xulosalardan Qozog‘iston Respublikasi Abay nomidagi qozoq milliy pedagogika universiteti talaba va magistrantlariga Germaniya tarixi, madaniyati, nemis tilidagi zoomorfizmlar ma‘nolarining kognitiv va lingvomadaniy tahlili, xalq og‘zaki ijodi, qadimiy urf-odat va an‘analarini o‘qitishda, madaniyatlararo muloqot, etnografizmlar haqidagi modullarni tuzishda foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi Abay nomidagi qozoq milliy pedagogika universitetining 2024-yil 11-yanvardagi №10-07-28/30-son ma‘lumotnomasi). Natijada nemis tilidagi zoomorfizmlar ma‘nolarining kognitiv va lingvomadaniy tahlillari leksik tizimning uzviy bo‘lagi ekanligini aks ettirilishiga doir o‘quv kurslar tashkil qilinish saviyasini oshirilishiga erishilgan;

ayrim zoomorfizmlar metaforik yoki metonimik ko‘chishlar asosida o‘zbek va nemis jamiyatida o‘ta salbiy baholanadigan sifatlarga ega bo‘lishi va nemislarga ham, o‘zbeklarga ham jiddiy kamchilik yoki shaxsning ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlaridan chetga chiqishi bo‘lib ko‘rinishi, ularning yordamida odamni haqorat qilish mumkinligi ko‘rsatilgan, invektiv gaplar sifatida shaxs haqidagi mulohazalarni ekstremal shaklda ifodalab, qiyoslanayotgan madaniy hamjamiyatning qadriyatli belgilar tizimini aks ettirishiga dalillangan xulosalardan Akademik B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti xorijiy tillar kafedrasida professor-o‘qituvchilarining ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlari amaliyotida bevosita foydalanildi (Akademik B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universitetining 2024-yil 11-yanvardagi №01/148-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Zamonaviy nemis adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Nemis tili tarixi”, “Matnshunoslik”, “Madaniyatshunoslik” kurslari mazmuni yanada boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan, mahalliy nashrlarda 7 ta, xorijiy jurnallarida 4 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo’yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va 2 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Zoomorfizmlarni tadqiq etishning tayanch konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zoomorfizm tushunchasining til tizimidagi o’rni va ahamiyati, hayvonot olami nomlarini anglatuvchi til belgilarining mazmun ko’lamini ta’riflovchi tadqiqotlar sharhi, zoomorfizmlar olami manzarasining lingvomadaniy xususiyatlari, zoomorfizmlar ma’nosida mujassamlashgan madaniy konnotatsiyalar tahlili, zoomorfizmlarni qiyosiy tipologik tadqiq etish imkoniyatlari yoritilgan.

Hayvonni nomlash bilan bog’liq etnolisoniy ongda shakllangan aynan bir xil yoki semantik hajmi bo’yicha juda yaqin tushunchani ifodalash maqsadida tadqiqotchilarning turli atamalardan foydalanishi, o’z navbatida, atama ma’nosining denotativ va signifikativ tarkibiy qismlarini idrok etish jarayonini ma’lum darajada qiyinlashtirib qo’ymoqda. Tadqiqotlarda qo’llanilgan atamalarning ma’nosiga berilgan ta’riflar mazmun jihatidan rang-barangdir.

Zoonim atamasining ta’rifiga keng yondashishda “hayvonlar” semantik maydoniga tegishli bo’lgan birliklardan hosil bo’lgan hayvonlarning har qanday nomlari va hayvonlarning hayotiga taalluqli bo’lgan realiyalarni anglatuvchi turli leksik birliklar belgilari kiritilib, ular keng ma’noda hayvonlarning nomlarini (mushuk, burgut), taxalluslarini (Murka, Juchka), hayvon tanasi qismlari (terisi, panjasi) hamda hayvonlarga aloqador obyektlar (yaylov, ombor)ni qamrab oladi. Tor ma’noda bu atama faqat hayvon nomlarini o’z ichiga oladi.

Tadqiqotlarda *zoonim* atamasidan tashqari *zooleksema*, *zoosemizm*, *zoomorfizm*, *zoometafora*, *zooxarakteristika*, *animalionim*, *animalizm* va boshqa ko’plab atamalarni ham uchratish mumkin. Bunday atamalar vositasida xilma-xil tushunchalarning ifodalanishi bugungi kunda tadqiqotchilar o’rtasida har qanday tilning leksikasida boy tematik qatlamni tashkil etuvchi sitemizuvchi

yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar, baliqlar va hokazolarni atash borasida yagona fikr mavjud emasligidan dalolat beradi.

Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor zoonim tarkibli lingvistik birliklarda voqelanadigan madaniy kodlarning tahliliga qaratildi: a) qushlarni bildiruvchi zoonimlar majmuini ifodalaydigan ornitologik kod (*wie zwei Hähne aufeinander losgehen*); b) yirtqich hayvonlarni bildiruvchi nomlarda qo'llaniladigan teriologik kod (*grausam wie ein Tiger, der Löwe der Gesellschaft*); c) hasharotlarni belgilash uchun nomlar to'plamida uchraydigan insektologik kod (oshga pashsha tushmoq, pashshadan fil yasamoq); d) baliqlarni bildiruvchi nomlarda verballashadigan ixtiologik kod (ko'lning otini baliq chiqarar); e) sudraluvchilarni belgilash uchun nominativlar to'plamini ifodalaydigan gerpetologik kod (*Sie ist falsch wie eine Schlange*); f) ham suvda, ham quruqlikda yashovchi hayvonlarning nomlaridan iborat amfibiologik kod – (qurbaqa salla); g) sut emizuvchilarni ifodalash uchun zoonimlar to'plamida verballashadigan mammalionimik kod (*Wie der Hund auf dem Hen*).

Til tizimiga kiritilgan har bir so'zning asl ma'nosi bor, lekin u asl ma'nodan farqli obrazli ma'noni ham anglatishi mumkin. Obrazli til so'zning hosila ma'nosini kengaytirishga hamda asl ma'noda muhim ma'noga ega bo'lmagan iboralarga ma'no berishga imkon beradi. Masalan, o'zbek va nemis tillarida zoomorfizm sifatida qo'llanadigan "*bo'ri/wolf*" so'zi – kimdir bo'ridek yashaydi, ovlaydi, ko'payadi, degan ma'noni anglatmaydi. U o'zbek tilida *yovuz, qonxo'r, shafqatsiz odamni*, nemis tilida esa *battol, och odamni* anglatadi. Bu atributlarning barchasi odamlar kuzatgan bo'rining xatti-harakatlari bilan bog'liq. Bunday kuzatishlar bo'ri xislatlarini odamga ko'chirish imkonini beradi. Bo'rining bu xislatlari obrazli ma'noda inson olamiga ko'chiriladi.

"Hayvon → odam" qolipi doirada odamning peyorativ va meliorativ tavsifi uchun turli tillarda qo'llaniladigan zoomorfizmlar tilda aniq ifodaliligi bilan ajralib turishi bilan birga, quyidagi xususiyatlarga ham ega bo'ladi: a) ular har doim baholash qiymatiga ega, masalan, *xameleon* – o'zgaruvchan, prinsipsiz shaxs haqida); b) bunday zoomorfizmlar aniq ifodalangan ekspressivlikka ega (masalan, *cho'chqa* iflos odam haqida); c) antroposentrik zoomorfizmlar nominativ funksiyani emas, balki obrazli tavsiflash funksiyani bajaradi (masalan, *maymun* - xunuk yoki qiyshanglaydigan odam haqida); d) zoometaforalar odatda odamning tashqi ko'rinishi, xarakteri yoki xatti-harakatining ma'lum bir xususiyatini hayvon obrazini idrok etishning dominant parametrlariga muvofiq baholaydi (masalan, fil – "jussasi pishiq odam haqida", jirafa – "bo'ydor odam haqida"); e) shaxsni tavsiflovchi zoomorfizmlar etnomadaniy qoliplarga bog'liq holda ham asosiy baho, ham qo'shimcha baho berishi mumkin (masalan, it odamga nisbatan umumiy baholovchi – ham ijobiy, ham salbiy tavsiflovchi funksiyaga ega zoomorfizmdir. Qiyoslang: ko'ch. haqorat. Sen yomon itsan. Vafodor it! It zoomorfizmining juz'iy baholovchi ma'nolari "battol/badjahl", "sodiq" va hokazo).

Zoomorfizmlar semantikasida belgi va tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi denotativ komponent va belgi namoyon bo'lishida his-tuyg'u,

baho, obrazlilik va intensivlik semalarini ma'no tarkibida mustahkamlovchi konnotativ komponent birlashtiriladi. O'xshatish asosi sifatida ongda paydo bo'ladigan assotsiativ o'xshashlik, bir tomondan, intuitiv tarzda topilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, aqliy tasavvurni lingvistik tarzda taqdim etishning mumkin bo'lgan usullaridan biridir. Bu fakt ma'noning metaforik ko'chishini bir xil ma'noda talqin qilishning mumkin emasligini izohlaydi. Bu borada, til sohiblari ongida u yoki bu obrazdan foydalanishda yuzaga keladigan assotsiativ tavsiflar juda xilma-xildir. Bitta metaforik obraz ortida turli xil predikativ tavsiflar biriktirib qo'yilishi mumkin... va aksincha, bir xil belgiga turli metaforik subyektlar mos kelishi mumkin.

Zoomorfizmning, xususan, zoomorfik analogiyalarda ham namoyon bo'ladigan yana bir muhim xususiyatini qayd etamiz: o'xshatish uchun asos sifatida tanlanadigan obraz voqelikni idrok etish va baholash bo'yicha milliy ko'rsatmalarga tayanadi. Masalan, o'zbek ongidagi *eshak* obrazi mashaqqatli mehnatni itoatkorlik bilan bajaradigan (ertalabdan kechgacha eshakday ishlamoq) mehnatkash, chidamli odam bilan fikran bog'lanadi. Biroq u ona tili sohiblarining ongida o'ziga xos jozibadorlikka ega emas, aksincha, achinish va qandaydir mensimaslik tuyg'usini uyg'otadi. Nemis ongida bu obrazga "ahmoq, befahm" baholovchi komponenti ham berilgan. Shu munosabat bilan shaxsning obrazli nominatsiyasi uchun zoonim tanlash prizmasi orqali namoyon bo'ladigan turli xalqlarning hayvonlarga nisbatan munosabatini ifodalash bo'yicha kuzatishlarni qiyoslash mumkin: "Biz qiz yoki bolani yoqimli so'z bilan chaqirmoqchi bo'lsak, ularni kabutarlar deb ataymiz; kaltafahm va parishonxotir odamni qarg'a deymiz. Yonma-yon yashovchi xalqlar ko'pincha odamlarga murojaat qilish uchun hayvonlarning o'xshash belgilaridan foydalanishadi. Agar milliy madaniyatlar sezilarli darajada farq qilsa, zooo'xshatishlarda ham nomuvofiqliklar kuzatiladi.

Ishning **"O'zbek va nemis tillari leksikografik manbalarida qayd etilgan zoomorfizmlarning qiyosiy lingvokulturologik tahlili"** nomli ikkinchi bobida zoonim va zoomorfizmlarning semantik va lingvomadaniy tabiati bilan bog'liq masalalar to'rt yo'nalishda: a) zoonimning asl, birlamchi ma'nosi va uni tasniflovchi denotativ belgilarning til tizimida aks ettirilish darajasi; b) zoonimning ko'chma, ikkilamchi ma'nosi (zoomorfizm)ning shakllanishi asosida turuvchi kognitiv formatlarning o'rni; c) o'zbek va nemis tillarida zoomorfizm vositasida shaxsni identifikatsiyalash va tavsiflashning kognitiv asoslari; d) zoomorfizmlarning erkalash va haqorat sifatida qo'llanishi – qiyosiy, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi.

Hayvonlar nomlari xalqlarning tarixi, etnografiyasi va tafakkuri bilan bog'liqligi keng yoritilgan masalalardandir. Shu bilan birga, hayvonot olami va uning inson ongida idrok etilishi har qanday milliy til olamining lingvistik manzarasini keltirib chiqaradigan omillar bo'lar ekan, zoonimlarning denotativ guruhlari ham muayyan xalq olami lisoniy manzarasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etishi ayni haqiqatdir. Hayvonot olami to'g'risida har bir xalq milliy ongida shakllangan bilimlar fondining xilma-xilligi va milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan quyidagi guruhlar olimlar tomonidan qayd

qilingan: 1) sutemizuvchilar; 2) qushlar; 3) hasharotlar; 4) baliq va dengizda yashovchi hayvonlar; 5) sudralib yuruvchilar; 6) ham suvda, ham quruqlikda yashovchi hayvonlar; 7) kemiruvchilar⁶. Ilmiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, zoonimlarning har bir tematik guruhi katta miqdordagi, jumladan, sutemizuvchilar guruhi 5700 dan ortiq, qushlar guruhi 11161, hasharotlar guruhi 1 milliondan ortiq, baliqlar 2534, kemiruvchilar 2652 va sudralib yuruvchilar 12 mingga yaqin turdagi nomlar bilan taqdim etilgan⁷. Shu bois tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, tahlil predmeti sifatida zoonimlarni tanlashda, birinchidan, mazkur zoonimlarning qiyoslanayotgan tillarning izohli lug'atlarida qayd qilinishi (madaniy mezon) va ikkinchidan, ularning zoomorfizm qiymatiga ega bo'lishi (kognitiv mezon) kabi ikki omil inobatga olindi.

Zoonim semantikasining antropotsentrik yo'nalishda o'ta murakkab va keng qamrovli hodisa sifatida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, "hayvon→odam" modeli bo'yicha amalga oshiriladigan semantik birliklarning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi kognitiv asoslarni o'rganishni, milliy tajriba va bilim asosida shakllanadigan zoomorfizmning, birinchidan, identifikatsiyalovchi (ya'ni birlamchi nomlashdan→ikkilamchi nomlashga ko'chirilishi) va ikkinchidan, tavsiflovchi funksiyalarini tizimlashtirishni taqozo etadi. O'zbek va nemis xalqlarining milliy-madaniy ongida shakllangan zoomorfizmi – ikkilamchi nomlashni keltirib chiqaradigan kognitiv mexanizmlarni aniqroq idrok etish, o'z navbatida, zoonim denotatiga xos bo'lgan ekstralingvistik omillar to'g'risida milliy-madaniy ongda shakllangan tasavvurlarni va ularning izohli lug'atlarda qayd qilinish ko'lamini o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Jadval – 1

Zoonimlar va ularning denotatlariga xos belgilarning o'zbek va nemis tillari izohli lug'atlarida qayd qilinish ko'lami hamda zoonimlarning qo'llanish darajasi

Zoonimlar guruhi	O'zbek tili ILda 57 ta	Nemis tili ITda 39 ta
Uy hayvonlari	bo'taloq/bo'ta, buzoq, buqa, cho'chqa, echki, eshak, ho'kiz, it, megajin, mol, mushuk, ot, qo'chqor, qo'y, qo'zi, qo'zichoq, qulun, quyon, sigir, toy/toychoq, tuya, xumpar.	der Esel, das Pferd, der Hund, die Katze, das Schwein, das Schaf, der Bock, der Stier, der Hase, eine Kuh, der Fohlen, das Kätzchen.
Yovvoyi hayvonlar	arslon, bo'ri, buqalamun/xameleon, fil, ilvirs, maymun, ohu, quralay, sher, to'ng'iz, tulki, yo'lbars,	die Hase, der Affe, die Antilope, die Gazelle, das Chamäleon, der Wolf, Der Schneeleopard, der Löwe, der Tiger, der Elefant, das Eichhörnchen, der Igel, die Fuchs, der Bär, der leopard.

⁶ Щербак А.М. Названия домашних и диких животных в тюркских языках //Историческое развитие лексики тюркских языков. – Москва, 1961. – С. 83–172.; Hanak V., Mazak V. Bunte Welt der Säugetiere. - Prag: Artia, 1979. – S. 352.; Бояркина Л.М. Репрезентация концепта «Человек/личность» средствами разных языковых уровней в современном английском языке (на материале зоонимов и фитонимов): Автореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2010. – 23 с.

⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Животные>

Qushlar	jo‘ja, burgut, g‘oz, chumchuq, qush, tovuq, tullak, xo‘roz, boyqush/boyo‘g‘li, bulbul, burgut, mayna, to‘ti.	der Vogel, der Spatz, die Gans, der Hahn, das Huhn
Hasharotlar	chayon, chivin, chigirtka.	die Fliege.
Baliqlar	baliq	der Fisch, der Aal.
Sudralib yuruv-chi hayvonlar	ilon, zuluk.	die Schlange, der Frosch.
Kemiruvchi hayvonlar	kalamush, sichqon.	die Maus, die Ratte.

Zoonimlar sonidagi bu farq ikki asosiy sabab orqali izohlanadi: 1) o‘zbek tilida jins kategoriyasining yo‘qligi (urg‘ochi hayvonlar suppletiv usul bilan (masalan, ot↔baytal, biya) yoki analitik yo‘l bilan “urg‘ochi” so‘z shakli qo‘shilishi bilan (masalan, urg‘ochi+bo‘ri) hosil bo‘ladi; 2) tarixiy-geografik yoki etno-geografik omillar bilan bog‘liq holda milliy-madaniy ongda muayyan zoonimning belgilari haqida tegishli tasavvurlarning kengligi yoki yo‘qligi.

Jadval – 2

Zoonimlar va ularning denotatlariga xos belgilarning o‘zbek va nemis tillari izohli lug‘atlarida qayd qilinish ko‘lami

Hayvon nomlari	O‘zbek ILdagi ta’riflari	Nemis ILdagi ta’riflari
ot/Pferd	yakka tuyoqlilarga mansub o‘txo‘r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni	yakka tuyoqli, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni + oyoqlarining uzunligi, yungini kattaligi, boshining uzunligi, kattaligi, yoli va uzun yungli dumi ham mavjudligi qayd qilingan.
cho‘chqa/Schwein	go‘sh va sala (cho‘chqa yog‘i) uchun boqiladigan kalta oyoqli sutemizuvchi, yirik uy va yovvoyi hayvon.	go‘sh va sala (cho‘chqa yog‘i) uchun boqiladigan kalta oyoqli sutemizuvchi, yirik uy va yovvoyi hayvon + tanasi to‘q, boshi cho‘ziq, tumshug‘i magistral kabi cho‘zilgan, pushti-qora ranggacha terisi tuklari bilan qoplangan va dumi odatda jingalak.
qo‘y/ Schaf	Jun, sut va teri olish uchun boqiladigan uy hayvoni + go‘sh uchun boqiladigan, juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi sutemizuvchi uy hayvoni.	Jun, sut va teri olish uchun boqiladigan uy hayvoni + qalin va jingalak yungidan jun ip ishlab chiqariladigan, terisi va suti material va pishloq tayyorlashda ishlatiladigan biologik hayvon.
it/ Hund	Uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ov ovlash va sh.k. maqsadlar uchun saqlanadigan to‘rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni.	butun dunyo bo‘ylab tarqalgan kichik va o‘rta bo‘yli yirtqichlar oilasining a‘zosi, hid va eshitish hissi yaxshi rivojlangan, tutqunlikda tezda odamga o‘rganib qoladigan hayvon.
mushuk/ Katze	mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon.	sichqonlarni ushlaydigan o‘tkir tishli va tirnoqli (uy) hayvon.

Masalan, nemis tilda *die Kuh qoramol, kiyik, fil, jirafa, begemot* va boshqalarning urg'ochisini ham anglatadi⁸. O'zbek va nemis tillari izohli lug'atlarida qayd etilgan zoonimlarning o'ziga xos belgilari to'g'risida milliy ongda shakllangan bilimlar fondining til tizimida aks ettirilganlik darajasini ayrim sut emizuvchi zoonimlar misolida ko'rib chiqamiz⁹.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da sutemizuvchi uy hayvonlari yosh va jins semalari bo'yicha ham keng miqdorda izohlangan. Masalan, yosh belgilari bo'yicha bo'taloq/bo'ta, buzoq, kurra (xo'tik), qo'zi, qulun (otning bir yoshgacha bo'lgan bolasi), toy/toycha (otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolasi) va b.q.; jins belgilari bo'yicha sovliq, biya, baytal, megajin, qanjiq va b.q. “Nemis tilining izohli lug'ati”da bu zoonimlarning aksariyati o'z aksini topmagan, topganlari ham giperonim vazifasini bajargan. Masalan, toy, toycha/Fohlen leksemalarining semantik tavsifida, mos ravishda, toy, toycha zoonimi otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolasi, Fohlen zoonimining a) yangi tug'ilgan yoki yosh ot; b) (eshak, tuya, zebralardan) yangi tug'ilgan yoki yosh hayvon to'g'risidagi ikki turdagi tasavvurlar o'z ifodasini topgan.

Qiyoslanayotgan tillarda “Sut emizuvchi uy hayvonlari” boshqa zoonim guruhlaridan ajralib turadigan ma'lum bir xarakterli belgilar to'plami bilan ifodalangan maxsus prototip sxemalarga ega. Hayvonlarda gavda, to'rt oyoq, dum, quloqlar, burun, tumshuq shunday belgilardir. Uy hayvonlari odamlarga yo moddiy boyliklar va xizmatlar manbai sifatida, yo ularning bo'sh vaqtlarini yorqinlashtiradigan hamroh sifatida foyda keltiradi. Ba'zi uy hayvonlari odamlarga bevosita moddiy manfaat, masalan, oziq-ovqat (sut, go'sht), material (jun, teri) manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilida sigir, qo'y, echki, ot, tuya, buzoq, buqa, quyon shunday hayvonlar bo'lsa, nemis tilida bu hayvonlar: *die Kuh, das Schwein, das Schaf, die Ziege, das Kalb, der Stier, das Kaninchen, der Hund*. Boshqa hayvonlar (ish hayvonlari va xizmat hayvonlari) mehnat funksiyalarini bajarish (yuklarni tashish, qo'riqlash va boshqalar) orqali odamlarga foyda keltiradi. Bu hayvonlar: ot, tuya, eshak, ho'kiz, xachir, it (o'zbek tili) va *das Pferd, der Esel, das Maultier, der Hund* (nemis tili). Ikkinchi toifa hayvonlar – bo'sh vaqtini band qiladigan, huzur bag'ishlaydigan va muloqot qilish mumkin bo'lgan ulfat-hayvonlar (mushuk, it/ *die Katze, der Hund*).

Hayvonot olami va inson konseptual-tematik sohalari obyektlari o'rtasida juda ko'p konseptual bog'lanishlar mavjud. Ushbu bog'lanishlarning konseptual asoslari sifatida persepsiya (idrok), kuzatish, tajriba va assotsiativ formatlarning bilimlari xizmat qiladi¹⁰. Kontseptual aloqalarning kognitiv va lingvistik amalga oshishi kognitiv va lingvistik mexanizmlar orqali bajariladi. Zoomorfik metaforani o'rganish J.Lakoff va M. Jonsonning kontseptual metafora nazariyasiga asoslanadi. Unga ko'ra bu hodisa kognitiv funksiyaga ega bo'lib, bizning fikrlashimizga ta'sir qiladi va mavjud bilimga asoslangan holda yangi

⁸Duden. Deutsches Universal-Worterbuch. Das umfassende Bedeutungsworterbuch der deutschen Gegenwartssprache. 9. Auflage:1091.

⁹Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan zoonimlarning qiyoslanayotgan tillar izohli lug'atlarida qayd etilgan kognitiv belgilari 1-ildovada keltirilgan.

¹⁰Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – С. 16.

tajribani shakllantirishga imkon beradi. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning asosiy qoidasi “manba” va “maqsad” bilim sohalarining o‘zaro ta’siri natijasidagi metaforizatsiya jarayonini tushuntirishdan iborat¹¹.

Ushbu pozitsiya zoomorf ma’no ko‘chishlar algoritmini tavsiflash va turli perseptiv sohalar o‘zaro bog‘lanishining lingvistik mujassamlashishini tushuntiruvchi modelni yaratish imkonini beradi. Model ikki komponentli tuzilma bo‘lib, soddalashtirilgan shaklda ikkita perseptiv modallikning o‘zaro ta’sirini sxematiklashtiradi. Birinchi “manba” komponenti idrokning boshlang‘ich, tushunarli va vizual sohasi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu holatda bu perseptiv sezishlardir. “Zoonim” perseptiv sohasi “maqsad”ni ro‘yobga chiqaradigan sohadir. Uni boshqa perseptiv modallik terminlarida tuzilgan soha sifatida tushunish kerak. Ushbu zoomorfik model qo‘llanishining o‘ziga xosligi ma’no ko‘chishning “manba”dan “maqsad”ga ya’ni vizual bilimdan natija chiqarishga yo‘nalganligida hamda voqelik obyektlarini perseptiv kanal vositasida bilish natijalarini o‘z ichiga olgan til parchalari korpusini tahlil qilish jarayonida aniqlanadigan fiziologik asosning mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Umuman, perseptiv harakatning 4 bosqichi haqida gapirish kerak: obyektни aniqlash (birlamchi sezgi), farqlash (idrok etishning o‘zi), identifikatsiya qilish (etalon bilan identifikatsiya qilish) va tanish. Bunda dastlabki ikkitasi perseptiv harakatlar, keyingilari esa identifikatsiyalovchi harakatlardir, ya’ni birinchilari etalonni yaratishga, keyingilari esa mavjud stimulni allaqachon yaratilgan etalonlar bilan solishtirishga qaratiladi¹².

Zoomorfizm odam obrazini “oynadek aks ettirish” tamoyiliga ko‘ra modellashtiradi: bir tomondan, antropomorfik xususiyatlar (insonning xarakter xususiyatlari, xulq-atvori, turmush tarzi) hayvon obraziga beriladi. Boshqa tomondan, hayvon obrazi yiriklashtirilib odamga tushiriladi, ya’ni zoomorfik xususiyatlar (hayvonning odatlari, tabiati, tashqi ko‘rinishi) odamga ko‘chiriladi. Ushbu kognitiv mexanizm asosida zoomorfizmning universal tipologik modellari shakllanadi: “hayvonning tashqi ko‘rinishi – odamning tashqi ko‘rinishi”, “hayvonning xatti-harakati – odamning xatti-harakati” va boshqalar. Zoomorfizmlar madaniy baholarning har xil bo‘lishi bilan birga, ushbu turdagi nominatsiyalar asosida turgan bilimlarning tipologik bir xilligini ham ko‘rsatadi.

Bir qator hayvonlarning nomlari o‘zbek va nemis jamiyatida erkalash yoki o‘ta salbiy baholanadigan fazilatlariga ega. O‘zbek lingvomadaniyatida yosh zoonim nomlaridan (bo‘taloq/bo‘ta, qo‘zi, qulon, toy/toycha) asosan o‘g‘il bolalarga erkalab murojaat qilishda foydalaniladi. Salbiy bahoga ega hayvonlar qiyoslanayotgan til sohiblariga jiddiy kamchilik yoki shaxsning ijtimoiy xulq-atvor me’yorlaridan chetga chiqishi bo‘lib tuyuladi. Ular (o‘zb. eshak, ilon, cho‘chqa, kalamush, boyo‘g‘li, ho‘kiz, megajin va b.; nem. Hyäne, Kuh, Königskobra, Ratte, Specht, Schwein, Sau, ikkala til uchun universal eshak/Esel, kalamush/Ratte), cho‘chqa/Sau, Schwein, mocha/Eselin)). Bunda

¹¹Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – С. 9.

¹²Зинченко Т.П. Опознание и кодирование / Т.П. Зинченко. – Ленинград: Изд-во Ленинград университета, 1981. – С. 8.

ta'kidlash joizki, bir zoonim o'zbek tilida haqorat konnotatsiyasiga ega bo'lishi, nemis tilida esa inaktiv ma'noda qo'llanmasligi mumkin. Misol uchun, "baytal" so'zi o'zbek ayoli uchun haqoratli bo'lsa, nemis ayoli (nemischa "Stute") uchun (uning majoziy ekvivalentlari) xuddi shunday his-tuyg'ularni uyg'otmaydi. Garchi nemischa "Stute" so'zi nemis tilining izohli lug'atida ("ayol" – qishloqi xotin) qayd etilgan salbiy konnotatsiyaga ega, nemis tili sohiblarining kundalik ongida esa "jussasi bola tug'ish uchun qulay bo'lgan ayol" ma'nosida "yashaydi". O'zbekcha so'zda bunday konnotatsiyalar mavjud emas. Hayvon nomlarining bu guruhi nutqda voqelanganda inaktiv gaplarning bir qismiga aylanadi. Inaktivlar shaxs haqidagi mulohazalarni ekstremal shaklda ifodalaydi, ma'lum bir madaniy hamjamiyatning qadriyatli ko'rsatmalari tizimini aks ettiradi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "**Zoomorfizm-odam semantik modeli asosida shakllangan frazeologizmlarning qiyosiy lingvokulturologik tahlili**" deb nomlangan. Mazkur bobda o'zbek va nemis tillari frazeologik birliklarida zoomorf tavsifning verballashish xususiyatlari, o'zbek va nemis tillaridagi zoomorfizm tarkibli frazeologizmlarning lingvomadaniy tasnifi, o'zbek va nemis olami lisoniy manzarasida zoomorfizm tarkibli frazeologik birliklarning milliy va etnomadaniy o'ziga xosligi, lingvomadaniyatlarda "g'azab" hislarini ifodalovchi zoofrazeologizmlarning tillarda aks etishi kabilar o'rganilgan.

Zoomorfizmlar va zoomorf komponentli frazeologik birliklarning umumiy qatlamida uchta guruhni ajratish mumkin. Ushbu tasnifning mezoni o'xshashlik darajasi olamning lingvistik manzarasini ifodalashdagi farqlardir.

Birinchi guruh birliklari bir xil zoomorfik tasvirlardan foydalangan holda barcha tillar uchun universal bo'lgan ma'nolarni bildiradi. Bu guruh birliklari etimologiyasiga ko'ra, bibliya so'zlariga, lotin va qadimgi yunon matnlari orqali kirib kelgan iboralarga hamda Ezop ertaklaridan olingan frazeologizmlarga bo'linadi. Turli tillardagi hayvoniy tasvirlarning mos kelishi lotin va qadimgi yunon matnlaridan olingan bayonotlar natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Turli xalqlar antik davrning madaniy merosidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, bu madaniy birliklar tahlil qilingan har bir tilda ildiz otgan. Masalan, o'zbekcha: baliq boshidan sasiydi; nemischa: der Löwenteil, weißer Rabe.

Ikkinchi guruh turli zoomorfik tasvirlar yordamida o'xshash mavzularni ifodalovchi birliklardan iborat. Ular orasida mehnatga munosabat, hayotiy imtiyozlar muammosi, shuningdek, dangasalik – bekorchilik, yolg'on – fantaziya va boshqa tushunchalarning namoyon bo'lishi kabi semantik qatlamlar ajralib turadi.

